“O‘zmilliybank” AJ Jizzax viloyat Bosh boshqarmasi hamda BXO,BXMlar barcha rahbar va xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan 31 - sonli yig‘ilish

B A Y O N N O M A S I

2026 yil “ 09 “ aprel Jizzax shahri.

Yig‘ilish raisi: A.Qurbanov - Bosh boshqarma boshlig‘i 1-o‘rinbosari

Qatnashdilar: Jizzax viloyati Bosh boshqarmasi o‘rinbosarlari, bo‘lim hamda barcha xodimlari, *(zoom orqali)* bank markazlari ofisi mudiri va xodimlari hamda bank xizmatlari markazi boshqaruvchilari va xodimlari: *Jami 64 nafar*

K U N T A R T I B I:

1. O`zmilliybank AJ Jizzax viloyat Bosh boshqarmasi Jizzax amaliyot, Industrial va Mirzacho‘l bank xizmatlari markazlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda firibgarlik va boshqa turdagi jinoyatlar sodir etilishini oldini olish chora-tadbirlari to’g’risida.

2. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishga oid huquqiy targ‘ibotlarning mazmun-moxiyatini bank xodimlariga tushuntirish orqali amalga oshirishlikni hamda har qanday holatda ham manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlari to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masala yuzasidan “O‘zmilliybank” AJ Jizzax viloyat Bosh boshqarmasi boshlig’i 1-o‘rinbosari A.Qurbanov so‘zga chiqib, kun tartibidagi masalalar bilan xodimlarni tanishtirdi.

Yigilish raisi - A.Qurbanov O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga rioya etish, ushbu qonunning mohiyati va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha milliy bank tizimida ham bir qator ishlar amalga oshirilayotganligi, ushbu illatga murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish hamda bu borada keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinayotganligi takidladi.

Ma’lumki, bugungi kunda Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazib, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois, unga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etib, respublikamizda ham dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash tizimini barpo etishda keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish, unga tanqidiy yondoshgan holda milliy qonunchilik va amaliyotga tatbiq etish lozimligini aytib o‘tdi.

A.Qurbanov o‘z so‘zini davom ettirib, корrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan maqsadlarni samarali amalga oshirish hamda Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida mavjud xato-kamchiliklarni bartaraf etish yo‘lida olib borilayotgan say’i-harakatlarda xodimlarning siyosiy ongini yuksaltirish, huquqiy madaniyatini oshirish hamda korrupsiyaviy harakatlarga qarshi va Manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va oldini olish yo‘nalishidagi tushunchalarni shakllantirish zarurligiga e’tibor qaratish lozimligi, iqtisodiy sohada sodir etilgan korrupsiyaviy holatlar haqida bir qancha misollar keltirildi hamda barcha ishtirokchilarni hushyorlikka, lavozim yo‘riqnomasi vazifalarini vijdonan va sidqidildan bajarishga, xizmat

ko'rsatish madaniyatiga rioya etishliklarini, ayniqsa, barcha turdagi kreditlarni rasmiylashtirish bilan shug'ullanuvchi xodimlarni, hamda ***Kredit qarzdorliklarini monitoring qilish va undirish guruhi, Kreditlarni dastlabki undirish bo'limi, Muammoli kreditlarni undirish va yuridik muvofiqlashtirish boshqarmasi xodimlarini aloxida ogoxlantirib,*** korrupsiyaviy xatti-xarakatlar sodir etgan har qanday xodimga nisbatan qonuniy choralar ko'rilishini aytib o'tdi va shu bilan birga Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olish maqsadida Extimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya joriy etilganligini, dekleratsiyani to'ldirishda *(yillik, ishga qabul qilinayotganda, boshqa ishga o'tkazilayotganda)* yaqin qarindoshlarga oid ma'lumotlarni yashirmaslikni, manfaatlar to'qnashuvi holatlari yuzaga kelgan taqdirda raxbariyatga bildirgi orqali ma'lum qilishliklarini, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini yashirmaslik yuzasidan tushunchalar berilib o'tildi.

Bundan tashqari Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi Korrupsiyani oldini olishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi G'.Yunusov, hamda Xavfsizlik, rejim va axboratlarni himoya qilish bo'limi boshlig'i S.Julanov so'zga chiqib, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish doirasida va firibgarlik, kiber jinoyatlarni sodir etilishiga hamda shunga o'xshash boshqa turdagi jinoyatlarning sodir etilishini oldini olish maqsadida "O'zmilliybank" AJ tizimida Axborot va bank havfsizligi departamenti hamda KTB Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi tomonidan Bank xodimlarining huquqiy ongini oshirish, targ'ibot-tashviqot tadbirlarini yanada jonlantirish hamda samaradorlikka erishish, qonun ustivorligini ta'minlash masalalarida taalluqli ishlar olib borilayotganligini aytib, korrupsiya - shunday illatki, uni bir yoki ikki departament, tuzilma sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, barcha xodimlarimiz, jamoa bo'lib unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkinligini, korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etishga moyil bo'lgan xodmlarni aniqlash maqsadida bank xodimlari ustidan doimiy nazorat olib borilayotganligini, korrupsiyaviy holatlar aniqlansa ularga nisbatan Huquqni muxofaza qiluvchi idoralar tomonidan jinoiy javobgarlikka tortilishini qat'iy ogoxlantirib o'tdi.

Yig'ilish so'ngida kun tartibidagi masalalar yuzasidan Bankning tarkibiy tuzilmalari yuridik ishlarini yuritish guruxi bosh yuristkonsulti B.Muxtarov sodir etilgan korrrupsiyaviy, firibgarlik va boshqa turdagi jinoyatlar oqibati nimalarga olib kelishligi yuzasidan huquqiy tushunchalar berib o'tdi hamda Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari, bo'lim boshliqlari, va BXM boshqaruvchilarining fikr muloxazalari tinglandi.

Yuqoridagi aytib o'tilganlarni inobatga olgan holda yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan kun tartibidagi masalalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Korrupsiyani yoki korrupsion sxemalarni oldini olish, kelib chiqish omillarini yo'q qilish bo'yicha hamda manfaatlar to'qnashuga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olish hamda firibgarlik va boshqa turdagi jinoyatlarni sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik va uni oldini olish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar doirasida olib borilayotgan ishlarni jadallashtirishni va qonun ustivor Davlatimizda jazo muqarrarligi barcha xodimlarga yetkazilsin.
3. Barcha bank ichki mexnat tartibi qoidalari, tartib intizom, bank va axborot xavfsizligi qoidalariga, ijro intizomiga qat'iy rioya etilsin.
4. Mazkur yig'ilish qarori ijrosi ustidan nazoratni Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi bosh mutaxassisi G'.Yunusov hamda Xavfsizlik, rejim va axboratlarni himoya qilish bo'limi boshlig'i S.Julanov tomonidan amalga oshirilishi belgilansin.

Yig'ilish raisi: **A.Qurbanov**

Kotib: **G'.Yunusov**

NBU
O'ZMILLIYBANK

NBU
O'ZMILLIYBA